

Harbiy-akademik litseyning maqsad va vazifalari

1. O'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligini ta'minlash uchun mas'uliyat hissini, shuningdek, ularning huquqiy bilim va madaniyatini oshirish, O'zbekiston Respublikasiga sodiq, fidoyi fuqarolarni aniq maqsadli

va tizimli tayyorlash samaradorligini takomillashtirish harbiy-akademik litsey faoliyatining maqsadidir.

8. Harbiy-akademik litseyning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga, uning madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, ularda halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari shaxs sifatlarini, shuningdek, milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish;

xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo bobokalonimiz buyuk sarkarda Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo'lida o'zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash;

o'quvchilarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy

va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha mustahkam bilimlarni shakllantirish, shuningdek, ularga harbiy ishdagi boshlang'ich bilimlarni singdirish;

notiqlik va yetakchilik xislatlariga ega, jismonan rivojlangan, chidamli, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida respublikaning oliy, oliy harbiy

va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash.